

INVESTITSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MAZMUNI, TAMOYILLARI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI.

*Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi
Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot
fakulteti 4-kurs moliya va moliyaviy
texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada investitsion faoliyatni tashkil etishning iqtisodiy mazmuni, uning asosiy tamoyillari va xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Investitsiyalarning milliy iqtisodiyotdagi roli, ularni jalb qilish mexanizmlari hamda samarali boshqaruv uslublari yoritilgan. Shuningdek, investitsion muhit va infratuzilmaning rivojlanishi, xususan, xususiy sektor ishtirokining ahamiyati ham ko'rib chiqiladi. Maqolada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Investitsion faoliyat, iqtisodiy o'sish, kapital qo'yilmalar, investitsiya siyosat, xususiy sektor, infratuzilma, moliyaviy resurslar, investorlar huquqlari.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida iqtisodiy rivojlanishni rag`batlantirish, xususiy mulkni himoya qilish, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va jozibadorligini oshirish, tadbirkorlikka qulay investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash istiqbolda amalga oshirilishi ko`zda tutilgan eng muhim vazifalardan sanaladi.

O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyov tomonidan rivojlanishning uzoq muddatga mo`ljallangan kontseptsiyalari ishlab chiqilishi, bu borada birinchi qadam sifatida O`zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari qabul qilinib, mazkur dasturlarni moliyalashtirish fondi tashkil etilishi ta'kidlandi. Bunda iqtisodiyotni rivojlantirishda aholi qo'lida to`plangan mablag`larni investitsiya shaklida harakatga keltirish, odamlarda tadbirkorlik hissini kuchaytirish muhim vazifalarimizdan biri ekanligi e'tirof etildi.¹

Investitsiyalar iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab mamlakatlardagi investitsiya muhitiga bog`liq holda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida muhim o`rin tutadi. Shu munosabat bilan «Investitsiya» tushunchasining nazariy jihatdan tahlili dolzarb hisoblanadi. Investitsiyalarning mazmun-mohiyati so`nggi vaqtarda nashr etilgan

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, ҳалқ сўзи 2017 йил 22 декабрь.

iqtisodiy adabiyotlarda², himoya qilingan dissertatsiya ishlarida³ va amaldagi qonunchilikda⁴ yetarli darajada o`z ifodasini topganligi uchun biz bu to`g`risida batafsil to`xtalib o`tmasdan, umumiy tasavvur hosil qilish maqsadida tadqiqot natijasida shakllantirilgan quyidagi jadvalni keltirib o`tamiz (1-jadval).

1-jadval
Iqtisodiy adabiyotlar va qonun hujjatlarida investitsiya mazmuniga oid qarashlar⁵

| № | Muallif | «Investitsiya» atamasiga berilgan ta’rif |
|----------|-------------------------------|--|
| 1. | Smit A. | Investitsiya - amaliy boyliklarni qayta taqsimlash va ishlab ishlab chiqarish vositalarining asosiy harakatlari |
| 2. | Makkonnell K.R., Bryu S.L. | Investitsiya - ishlab chiqarish xarajatlari va assosiy vositalarni to`plash hamda tovar moddiy zaxiralaring ko`payishi |
| 3. | Igonina L.L. | Investitsiya - foyda olish yoki boshqa foydali samaraga erishish uchun tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat ob`yektlariga kapitalni joylashtirish |
| 4. | Samuelson P.A., Nordhaus V.D. | Investitsiya - kelajakda ishlab chiqarishni ko`paytirish maqsadida bugungi kunda iste'molni istisno qiladigan iqtisodiy faoliyat |
| 5. | Bocharov V.V. | Investitsiya - bu kapitalni har qanday tadbirkorlikka, keyinchalik uni rivojlantirish, ko`paytirish maqsadida sarmoya qilishdir |
| 6. | G`ozibekov D. | Investitsiyalar nazarda tutilgan va tutilmagan, ammo ehtimoli bor risklar hamda ko`zlanayotgan |

² Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: «Эксмо», 2016. – 1056 с., McConnell C.R., Brue S.L. Economics: principles, problems, and policies. 17th edition. – NY.: «McGraw-Hill Education» & «Irwin», 2008. – 820 р., Игонина Л.Л. Инвестиции. – М.: «Экономистъ», 2005. - 25 с., Ковалев В.В. Управление финансами. – М.: «ФБК-ПРЕСС», 1998. -156 с., Бланк И.А. Инвестиционный менеджмент. – Киев: «Ника-Центр» и «Элга-Н», 2001. - 448 с., Samuelson P.A., Nordhaus W.D. Economics. – NY.: «McGraw-Hill Education» & «Irwin», 2010. – 420 р., Бочаров В.В. Инвестиции. Учебник. – СПб: «Питер», 2009. – 18 с., Фозибеков Д. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. Ўкув қўлланма. – Т.: «Молия», 2003. – 28 б.

³ Хайдаров Н.Х. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солик муносабатларини такомиллаштириш масалалари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. ёз. дисс. - Т.: 2003., Кўзиева Н.Р. Хорижий инвестициялар иштироқидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизмини такомиллаштириш йўналишлари. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. ёз. дисс. автор. Т.: Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси. 2008. - 41 б.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 25 декабрдаги «Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида»ги ЎРҚ 598-сонли Қонуни. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.12.2019-й., 03/19/598/4221-сон.

⁵ Хидиров Н.Г. Саноат корхоналарида инвестицион фаолиятни молиялаштириш механизмини такомиллаштириш. Иқт.фналари бўйича (PhD) диссертацияси автореферати. Т.:2021.

| | | |
|----|---|--|
| | | samaralarni baholash asosida, o`z va o`zga mablag`lar qiymatining kapitallashuvi va jamg`arilishini ta'minlash maqsadida moliyaviy va real aktivlarga bog`lanishidan dalolat beradi |
| 7. | Haydarov N.H. | Investitsiya - bu mulk shaklidan qat'iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko`rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o`z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarini qonun doirasida bo`lgan har qanday tadbirkorlik ob`yektiga sarflashidir |
| 8. | Qo`ziyeva N.R. | Investitsiyalar – bu davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning daromad olish va boshqa ijobiy samaradorlikka yerishish maqsadida mamlakat ichkarisida va tashqarisida yangi korxonalar tashkil etish, faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarini kengaytirish, qayta ta'mirlash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ko`chmas mulk, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog`ozlar hamda aktivlarni sotib olishga yo`naltirilayotgan moliyaviy mablag`lari, mulkiy va intellektual boyliklardir |
| 9. | O`zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrdagi «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to`g`risida»gi O`RQ 598-sonli Qonuni | Investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari ob`yektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo`lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk ob`yektlariga bo`lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar |

Keltirilgan ta'riflardan kelib chiqqan va olib borilgan o'rganishlarni hisobga olgan holda investitsiyalarga quyidagicha mualliflik ta'rifi berib o'tdik: «Investitsiyalar – bo'sh turgan kapitalni iqtisodiy-ijtimoiy samara olish maqsadida harakatga keltirishdir». Ushbu ta'rifi yuqoridaagi ta'riflardan asosiy farqi shundaki, bunda investitsiyalarni ijtimoiy samara keltirish va shuningdek kapital foyda olish maqsadida harakatga kelgandagina investitsiyaga aylanishiga urg`u berilgan.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan mualliflarning «Investitsiya» tushunchasiga bergen ta'riflari hozirgi sharoitga va bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladi.

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda uning ob'yekti va sub'yektlari ishtirok etadi.

Investitsiya sub'yektlari - investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo`lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir.

Kapital qo`yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirish sub'yektlari quyidagilardir: investorlar, buyurtmachilar, pudratchilar, kapital qo`yilma ob'yektlaridan foydalanuvchilar va boshqalar.

Investorlar o`z mablag`i yoki jalb qilingan mablag` yordamida kapital qo`yilmalarni amalga oshiradi. Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmasi, davlat organlari va chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar investor bo`lishlari mumkin.

Investorlar quyidagalarni amalga oshirishda teng huquqqa ega:

- kapital qo`yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirishda kapital qo`yilmalar hajmi va yo`nalishlarini mustaqil belgilash hamda investitsiya su'yektlari bilan shartnomalar tuzishda kapital qo`yilmalar hisobiga yaratilgan, sotib olingan ob'yektlarga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish;

- shartnoma yoki davlat shartnomasi orqali kapital qo`yilmalarni amalga oshirish va uning natijalariga bo`lgan huquqni yuridik va jismoniy shaxslarga, davlat va mahalliy hokimiyatga o`tkazish;

- imzolangan shartnomalar asosida birgalikda kapital qo`yilmalarni amalga oshirish uchun o`zining va jalb qilingan mablag`larni boshqa investorlarning mablag`lari bilan birlashtirish;

- kapital qo`yilmalarga yo`naltirilgan mablag`larni maqsadga muvofiq ishlatalishini nazorat qilish va boshqalar.

Buyurtmachilar - investorlar tomonidan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun vakil etilgan yuridik va jismoniy shaxslar. Shu bilan birga, ular investitsiya faoliyati sub'yektlarining tadbirkorlik faoliyatiga aralashmaydilar. Buyurtmachilar rolida investorlarning o`zлari ham namoyon bo`lishlari mumkin. Investorlar bo`lmagan buyurtmachilar esa shartnomada belgilangan tartibda va davrda kapital qo`yilmalarga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqiga ega bo`ladilar.

Pudratchilar-yuridik va jismoniy shaxslar bo`lib, ular buyurtmachilar tuzgan shartnomalar asosida ishlarni bajaradilar. Pudratchilar qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish uchun ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo`lishlari kerak. Qurilish faoliyatini litsenziyalash qurilish mahsulotlari iste`molchilarini huquqlarini himoyalash maqsadida amalga oshiriladi. Kapital qo`yilma ob'yektlaridan foydalanuvchilar - bular yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat organlari, mahalliy hokimiyat, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bo`lib, ushbu ob'yektlar ular uchun yaratiladi.

Investorlar kapital qo`yilma ob'yektlaridan foydalanuvchilar rolida namoyon bo`lishi mumkin. Investitsiya faoliyati sub'yekti uning ikki va undan ortiq funktsiyalarini qo`shib olib borish imkoniyatini beradi. Investitsiya faoliyati sud davlat

organlari tomonidan qo`yilgan talablarni bajarishi hamda maqsadli ravishda. Investitsiya faoliyati investor tomonidan tanlangan sohalar hamda investitsiyalar sarflanishi lozim bo`lgan maqsadlar bilan, ya`ni investitsiya ob`yektlari bilan bog`liqdir.

Investitsiyalarni yo`naltirish sohalari ishlab chiqarishda ishtiroki va sarflanish ishlariga binoan investitsiya faoliyatining quyidagi ob`yektlarini farqlash mumkin:

- xalq xo`jaligining barcha tarmoqlaridagi yangidan yaratilgan va modernizatsiyalashtirilgan (yangilangan) asosiy fondlar va aylanma mablag`lari;
- fan-texnika mahsulotlari, izlanishlar, ta`limot, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- intellektual g`oyaviy boyliklar, mualliflik, ixtiro, kashfiyot huquqlari, tajriba;
- qimmatbaho qog`ozlar, maqsadli pul jamg`armalari;
- boshqa mulkchilik ob`yektlari;
- mulkiy huquqlar.

Investitsion faoliyat har qanday davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Uni to‘g‘ri tashkil etish orqali ishlab chiqarish quvvatlari oshadi, yangi ish o‘rnlari yaratiladi, texnologik modernizatsiya amalga oshadi. Samarali investitsiya siyosati davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, investitsion muhitni yanada yaxshilash, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish va moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish zamonaviy iqtisodiy strategiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi "Investitsiyalar to‘g‘risida"gi Qonuni.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Qodirov A., Tursunov B. Investitsion faoliyat asoslari. — T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021.
4. Xojayev Sh. Makroiqtisodiyot. — T.: “Fan va texnologiya”, 2019.
5. Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi hisobotlari (so‘nggi yillarda e’lon qilingan).